

xizmati, fidokorligi, qahramonlik namunasi hamda fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish bilan bog'liq ijobiy tajribalarini aks ettiruvchi *media va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan kontentlar hajmi va qamrovini tizimli ravishda ko'paytirish va efirga berib borish*.

3. Ichki ishlar organlarini faqat tekshiruvchi yoki jazolovchi tuzilma emas, balki fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va profilaktik yo'nalishlarda amaliy yordam ko'rsatuvchi organ sifatida jamoatchilik ongida *mustahkam fikr shakllantirish*.

Foydalanilgan manbalar

1. Мухитдинова Ф. Сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи. Дарслик. – Т.: ТДҶОИ, 2011. – 19-б.
2. Бобоев Х., Дўстжонов Т., Ҳасанов С., Олламов Я. “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. – Урганч, “Хоразм”, 2002. – 20–21-б.
3. Макиавелли Н. Государь. Перевод: Муравевой Г. Оригинальное издание: Макиавелли Н. Избранные произведения. – М.: «Художественная литература», 1982. [Электронный ресурс] – Режим доступа <http://lib.ru/POLITOLOG/VFRIAAWELLLL/gosudar.txt>
4. Никколо Макиавелли. Хукмдор. – Т.: “DABR PRESS”, НМУ, 2022. – 86-б.
5. Платон. Диалоги / пер. с древнегреч., сост., ред. и авт. вступит. ст. А.Ф. Лосев; авт. примеч. А.А. Тахо-Годи. – М.: Мысль, 2000. – С.195.
6. Аристотель. (384-322 до н. э.). Этика. Политика. Риторика. Поэтика. Категории / Аристотель. – Минск: Лит., 1998. – С. 284–285.
7. Учение Цицерона о государстве и праве [Электронный ресурс]. URL: http://politia.narod.ru/cicero_laww_and_state.htm
8. Лебон Г. Психология масс. (Электронный ресурс) – Режим доступа: <http://www.gumer.info/bibl/lebon/index.php>
9. Маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти томонидан жамоатчилик фикрини ўрганиш асосида 2025 йил декабрь ойи ҳолатига кўра келтирилган.
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023. – 3–4-б.
11. Шавкат Мирзиёев. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 27-б.
12. Шацкая Е.А. Теоретико-методологические подходы к исследованию имиджа представителей власти (на примере имиджа сотрудника полиции) // Полицейская деятельность, 20019. – № 6. – С. 31–39.
13. Вебер Э.М. Избранные произведения [Электронный ресурс] / Библиотека социологии Гумер. URL: <http://www.gumer.info/bibl/lebon/index.php>



SO'ROQ QILISHDAGI PROTSESSUAL BO'SHLIQLARNING JINOYAT ISHI BO'YICHA HAQIQATNI ANIQLASHGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR



MURODOV
Baxtiyorjon Bahodirovich
Toshkent Xalqaro universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor



ABDULLAYEV
Akmaljon Yo'Ichiboyevich
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Dastlabki tergov va surishtiruv kafedrasida o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada so'roq qilish tergov harakatida mavjud protsessual bo'shliqlarning jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Xususan, guvoh va jabrlanuvchilarning bila turib yolg'on ko'rsatma berishiga imkon yaratayotgan omillar, so'roq jarayonini videoyozuv orqali qayd etishning yetarli darajada tartibga solinmaganligi, qo'shimcha va qayta so'roq o'rtasidagi protsessual noaniqliklar, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ko'rsatma olish bilan bog'liq kolliziyalar tadqiq etilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyoti tahlil qilinib, milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: so'roq qilish, guvoh, jabrlanuvchi, yolg'on ko'rsatma, tergov amaliyoti, jinoyat-protsessual qonunchilik.

Аннотация. В статье исследуется негативное влияние процессуальных пробелов при производстве допроса на установление истины по уголовному делу. Особое внимание уделено факторам, способствующим даче заведомо ложных показаний свидетелями и потерпевшими, недостаточному правовому регулированию видеофиксации допроса, процессуальной неопределенности между дополнительным и повторным допросом, коллизиям, связанным с получением показаний на стадии доследственной проверки. Проанализированы законодательство и правоприменительная практика зарубежных государств, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию национального уголовно-процессуального законодательства.

Ключевые слова: допрос, свидетель, потерпевший, ложные показания, следственная практика, уголовно-процессуальное право.

Abstract. This article examines the negative impact of procedural gaps in interrogation procedures on establishing the truth in criminal cases. Particular attention is paid to factors contributing to the perjury of witnesses and victims, insufficient legal regulation of video recording of interrogations, procedural uncertainty between additional and repeated interrogations, and conflicts associated with obtaining testimony during the pre-investigation stage. Legislation and law enforcement practices in foreign countries are analyzed, and evidence-based proposals and recommendations for improving national criminal procedure legislation are developed.

Keywords: interrogation, witness, victim, false testimony, investigative practice, criminal procedure law.

Barchamizga ayonki, jamiyat, undagi ijtimoiy munosabatlar to'xtovsiz oldinga harakatda bo'ladi. Hayotimiz misli ko'rilmagan tezlikda o'zgarishlarga uchramoqda, shunga mos ravishda yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, yangidan yangi jinoyat turlari paydo bo'lib, uni sodir etish usullari ham rang-barang tus olmoqda. Shunday ekan, jamiyatning rivojlanish tezligiga mos ravishda qonunlar ham takomillashtirilib borilishi lozim. Aks holda, jamiyatdagi adolat mezonlari izdan chiqib ketadi. Zero, "Qonunlar va jamiyatning tartibi inson ongining rivojlanishiga muvofiq yangilanib borishi kerak" [1].

Mana shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, mamlakatimizda boshqa sohalar qatorida sud-huquq tizimida ham uzluksiz tarzda islohotlar olib borilmoqda. Barcha islohotlarning ruhi va mazmuniga "Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!" degan ezgu g'oya chuqur kirib bormoqda [2].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, islohot islohotligicha qolmasligi lozim. Ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun muntazam ravishda qonunchiligi-mizni tahlil qilib, aniqlangan xato va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmog'imiz, bo'shliqlarni esa o'rnida to'ldirmog'imiz darkor. Zotan, hamma narsani o'z nomi bilan, yutuqni – yutuq, kamchilikni – kamchilik deb ish olib bormasak, ko'zlagan maqsadlarimizga yeta olmaymiz. Ishimizda yo'l qo'yilgan xato va nuqsonlarni o'zimiz tuzatmasak, muammolarni o'zimiz yechmasak, hech kim chetdan kelib bu ishlarni biz uchun qilib bermaydi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim. Nega deganda, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari ancha oldin qabul qilingan bo'lib, o'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Shu sababli bu kodekslar bugungi davr talablariga javob bermay qoldi [4].

Darhaqiqat, bugungi kunda qonunchiligimizda kollizion holatlar va bo'shliqlarning yetarli darajada mavjudligi sud-tergov jarayonlarida tergov organlari bilan sud yoki tergov organi bilan prokuratura yoxud sud bilan prokuratura organlari o'rtasida, ayniqsa, "oqllovchi" va "ayblovchi" tomonlar

o'rtasida ko'plab ziddiyat va munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Oxirgi vaqtlarda bunday holatlar ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez ko'zga tashlanmoqda.

Biz yuqorida aytib o'tgan qonunchilikdagi bo'shliqlarni jinoyatlarni tergov qilishda guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatma berishida ham uchratishimiz mumkin. Zotan, muammoning mavjudligi uni bartaraf etish uchun takomillashtirishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Jinoyatlar tergovida guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatma berishi bilan bog'liq muammolar quyidagilarda yaqqol ko'zga tashlanadi:

Birinchidan, barchamizga ayonki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, so'roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ovozni yozib olish, videoyozuv va kinotasvirga olish ham qo'llanilishi mumkin. Guvoh yoki jabrlanuvchi, asosan, so'roq qilish tergov harakati davomida bila turib yolg'on ko'rsatma berishini inobatga olsak, ko'rsatmalarni videoyozuvga qayd etish muhim masala hisoblanadi. Qolaversa, yurtimizda aholi rang-barang shevada gaplashadi. Bunday hollarda so'roq bayonnomasiga kiritilgan so'roq qilinayotgan shaxsning ko'rsatmalariga tergovchi tomonidan subyektiv tarzda adabiy ishlov beriladi [5]. Bu tarzda olingan ko'rsatma nomaqbul hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan protsessual qonunchilikni jiddiy buzgan yoki noqonuniy uslublarni qo'llagan holda to'plangan ma'lumotlardan jinoyat ishlarida dalil sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi belgilab o'tilgan.

So'roq vaqtida ilmiy-texnik vositalardan foydalanish nafaqat tergov jarayonida so'roq qilinuvchining huquq va manfaatlarini ta'minlash orqali maqbul dalillar to'planishiga, balki shaxsning ko'rsatmalarini kelgusida uning intonatsiyasi va nutq xususiyatlari bilan qayta tahlil qilish orqali obyektiv baho berishga imkon beradi. Shu bilan birga, ovoz yozish, videoyozuvni sudda takrorlash mumkinligini anglash so'roq o'tkazayotgan shaxsni har bir harakatini qonun talabiga muvofiq amalga oshirishga majbur qiladi. Shuningdek, so'roq

qilinuvchini ko'rsatmalarini turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra o'zgartirishiga, bila turib yolg'on ko'rsatma berishining oldini olishga, qolaversa, tergovchining xavfsizligini ta'minlashga, ya'ni tergov harakati davomida guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan tergovchiga turli tuhmat va bo'hton qilinishidan saqlanishga xizmat qiladi. Shunday bo'lsa-da, JPKning 91-moddasi to'rtinchi qismida so'roq qilish videoyozuv orqali qayd etilishi shart bo'lgan protsessual harakatlar qatoriga kiritilmagan. Faqatgina 106-moddaning ikkinchi qismida so'roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ovozni yozib olish, videoyozuv va kinotasvirga olish ham qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan, xolos. Shuning uchun hozirgi kunda so'roq qilishni videoyozuv orqali qayd etish yuzasidan muayyan mezon va tartib belgilanmagani bois, tergovchilar tomonidan turlicha qarorlar qabul qilinmoqda.

Bu borada xorijiy tajribaga murojaat qilganimizda, bir qator mamlakatlar qonunchiligida voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilish jarayonini videoyozuvda qayd etish majburiylikiga guvoh bo'ldik. Misol uchun, Germaniya, Finlyandiya, Estoniya, Vengriya va Polsha kabi davlatlarda voyaga yetmagan jabrlanuvchi va guvohlarning so'roqlarini videoyozuvda qayd etish majburiydir. Ruminiya va Bolgariyada esa videoyozuvda qayd etish ixtiyoriy bo'lib, faqat jabrlanuvchilarga nisbatan nazarda tutilgan [6].

Fransiyada so'roqni videoyozuvda qayd etish majburiyati faqat voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga nisbatan qo'llaniladi [7].

AQSHda esa, agar so'roq audio yoki video yozuvda saqlangan bo'lsa, unda tergovchining tergov qilinayotgan shaxsga nisbatan harakatlari, ayblanuvchi ko'rsatmalarining to'g'riligi haqida hech qanday savol tug'ilmaydi va bu sudyalalar va hakamlar hay'atining so'roq mazmunini baholash uchun vaqtni tejash, tergov jarayoniga jamoatchilik ishonchini oshirishi mumkin. Amerika tergov amaliyotida so'roqlarning videoyozuvlari keng qo'llaniladi va hatto ba'zi shtatlarda qonuniy talab hisoblanadi [8].

Ushbu masala yuzasidan qonunchiligi yaqin va o'xshash bo'lgan qo'shni davlatlarning bu boradagi tajribalariga murojaat qilganimizda, Qozog'iston Respublikasi JPKning 219-moddasi

[9], Turkmaniston Respublikasi JPKning 118-moddasi [10], Qirg'iz Respublikasi JPKning 194-moddasi [11] so'roq vaqtida audio va video yozib olish uskunalaridan foydalanish deb nomlanganligi, qolganlardan farqli ravishda Tojikiston Respublikasi JPKda so'roq va boshqa tergov harakatlari vaqtida audio va video yozib olish uskunalaridan foydalanish deb nomlangan 97'-moddasi [12] mavjudligi ayon bo'ldi. Rossiya Federatsiyasi JPKda esa so'roq vaqtida audio va video yozib olish uskunalaridan foydalanish tartibi so'roq bayonnomasi deb nomlangan 190-moddasida [13] batafsil bayon etilgan. E'tiborli jihati, yuqorida ta'kidlangan kodekslarning barchasida agar so'roq qilish davomida audio va (yoki) videoyozuvdan foydalanilgan bo'lsa, bayonnomaga unga oid qanday holatlar kiritilishi kerakligi aniq ko'rsatib qo'yilgan.

Tojikiston JPKda so'roq vaqtida ovoz yozib olish uskunalaridan foydalanish bo'yicha alohida 97.1-modda mavjud. Turkmaniston JPKda gumon qilinuvchi so'roq qilishda video va ovoz yozish uskunalaridan foydalanishni so'rash huquqi mavjud. Mazkur davlat JPKning 118-moddasida so'roq qilish vaqtida ovoz va video yozuv uskunalaridan foydalanish tartibga solingan.

Shunday ekan O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligida ham so'roq jarayonini videoyozuvga olish shart bo'lgan hollarni aks ettirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kelgusida tergov harakatlarini yanada samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 91-moddasini quyidagi yangi tahrirdagi oltinchi qism bilan to'ldirish:

"So'roq jarayonini ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish shart bo'lgan hollar ushbu Kodeksning 106'-moddasida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi";

106-moddasining ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarini quyidagi tahrirda bayon etish:

"So'roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ushbu Kodeksning 106'-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan hollardan boshqa holatlarda ham ovozni yozib olish, videoyozuv va kinotasvirga olish qo'llanilishi mumkin.

Bayonnomada bundan tashqari, so'roq qiluvchi tomonidan avvalgi so'roqlarda berilgan ko'rsatmalarning o'qib eshittirilgani, ko'rsatma berish jarayonida so'roq qiluvchining hujjat yoki boshqa yozuvlardan foydalangani, so'roq qiluvchiga so'roq davomida narsa va hujjatlar ko'rsatilgani, so'roq paytida ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish qo'llanilganligi, ushbu yuzasidan so'roq qiluvchi ogohlantirilganligi, foydalanilgan texnik vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar, ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish sharoitlari, agar ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish to'xtatib turilgan bo'lsa, uning sababi va muddati to'g'risidagi ma'lumotlar, so'roq qiluvchining ushbu xususidagi bayonotlari qayd qilinadi. Fono-gramma, videoyozuv va kinotasma bayonnomaga ilova qilinadi.

So'roq tugaganidan keyin bayonnoma o'qib chiqish uchun so'roq qiluvchiga ko'rsatiladi yoxud uning iltimosiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi tomonidan unga o'qib beriladi. Agar so'roq paytida ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish qo'llanilgan bo'lsa, so'roq qiluvchiga ovoz, videoyozuv yoki kinotasvir namoyish qilinadi yoki eshittiriladi. So'roq qiluvchi tomonidan kiritilgan qo'shimchalar ham ovoz, videoyozuv va kinotasvirga qayd qilinib, so'roq qiluvchining ovoz, videoyozuv yoki kinotasvir to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi bayonoti bilan yakunlanadi. Bu haqda bayonnomaga qayd qilinadi";

quyidagi mazmundagi 106¹-modda bilan to'ldirish:

"106¹-modda. So'roq jarayonini ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish shart bo'lgan hollar

Quyidagilarni so'roq qilish jarayoni ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish orqali qayd etilishi shart:

1) muayyan shaxsning ish uchun ahamiyatli ma'lumotlarga ega ekanligi to'g'risida dalillar mavjud bo'lib, u bila turib yolg'on ko'rsatma berishi mumkinligi yuzasidan asosli shubha tug'ilgan bo'lsa;

2) o'ta og'ir jinoyatlar sodir etishda ayblanayotgan shaxslarni;

3) uzrli sabablarga ko'ra kelgusida sudda ishtirok eta olmaydigan shaxslarni;

4) nutqiy xususiyatlarini bayonnomada aks ettirish qiyin bo'lgan shaxslarni;

5) ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni;

6) tarjimon ishtirokida so'roq qilingan shaxslarni;

7) aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz qilgan yoki o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan shaxslarni

Ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish so'roq qiluvchining ko'rsatmalari va so'roq jarayonini to'liq aks ettirishi lozim. So'roqning bir qismini ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish, shuningdek, so'roq davomida berilgan ko'rsatmalarni ataylab takrorlashga yo'l qo'yilmaydi.

Ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish orqali o'tkazilgan so'roq qilish jarayoni ushbu Kodeksning 106-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilingan holda bayonnomaga qayd etiladi.

Ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish orqali qayd qilingan ko'rsatmalar boshqa tergov harakatlari chog'ida ko'rsatilgan taqdirda, bu haqda tegishli tergov harakati bayonnomasida aks ettirilishi lozim».

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi JPKda so'roq qilishning ketma-ketligi bo'yicha birinchi, qo'shimcha va qayta so'roq turlari keltirib o'tilgan. Qonunchiligimizda qaysi holatlarda qo'shimcha so'roq o'tkazish lozimligi ko'rsatib o'tilgan, lekin qanday vaziyatlarda qayta so'roq o'tkazilishining protsessual asosi mavjud emas. Faqatgina JPKning 121⁵-moddasida "ko'rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo'yilgan guvohlarni, jabrlanuvchilarni (fuqaroviy da'vogarlarini) qayta so'roq qilishga keyinchalik sudga qadar ish yuritish bosqichida yoki sud muhokamasi davomida ko'rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo'yilgan shaxsga berilishi kerak bo'lgan ish uchun muhim ahamiyatga molik yangi savollar tug'ilganda yo'l qo'yiladi" [14] deb ko'rsatib o'tilgan, xolos. Shu nuqtai nazardan, qo'shimcha va qayta so'roqdan ko'zlangan maqsad, taktik jihatdan ular bir-biridan qanday farqlanishi ochiq qolgan.

R.S. Belkinning fikricha, qayta so'roq paytida tergovchi yana so'roq qilingan shaxsning ko'rsatmalaridagi barcha yoki ba'zi holatlarni aniqlashga murojaat qiladi. Qayta so'roqning maqsadi: ilgari olingan ko'rsatmalar tafsilotini aniqlashtirish; mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni aniqlashda

ularni boshlang'ich ko'rsatma bilan taqqoslash uchun qayta ko'rsatma olish; so'roq qiluvchini o'z qarashlarini o'zgartirishga va to'g'ri guvohlik berishga undash; qaysi vaziyatda qo'shimcha boshlang'ich so'roq paytida olingan ma'lumotlarning qisman yoki butunlay yolg'on ekanligi aniqlansa, so'roq qayta o'tkazilishi mumkin. Qo'shimcha so'roq, qayta so'roqdan farqli o'laroq, ilgari muhokama qilinmagan ish holatlarini aniqlashtirish jarayoni hisoblanadi. Uning vazifasi allaqachon olingan ko'rsatmalarni to'ldirishdan iborat. Shuning uchun qo'shimcha so'roq erkin so'zlab berishsiz savol-javobga asoslanishi mumkin [15].

Shu o'rinda, JPKning normalari tahlil qilinda, 176-moddasi "Qo'shimcha va qayta ekspertizalar" va 187⁹-moddasi "Qo'shimcha yoki qayta taftish" deb nomlanganini ko'rish mumkin. Lekin nima uchun qonun chiqaruvchi qaysi hollarda qayta so'roq qilish o'tkazilishi kerakligini kiritmaganligi o'ylantiradigan holat. Chunki "qo'shimcha" va "qayta" so'zlarining mazmun-mohiyati bir-biridan tubdan farq qiladi. Buning asl ma'nosini yuqoridagi ekspertiza va taftish misolida ko'rishimiz mumkin. Zotan, guvoh yoki ayblanuvchining dastlabki bergan ko'rsatmasi haqiqat ekanligiga shubha tug'lsa, aslida qo'shimcha emas, balki qayta so'roq qilinishi lozim bo'ladi.

Yuqorida muhokama qilingan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarni taklif qilamiz:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 108-moddasi nomini quyidagi tahrirda bayon etish va yangi tahrirdagi ikkinchi qism bilan to'ldirish:

"108-modda. Qo'shimcha va qayta so'roq

Qayta so'roq quyidagi hollarda o'tkaziladi:

1) birinchi so'roq qilish paytida protsessual normalar va talablarga rioya etilmagan bo'lsa;

2) ko'rsatmalari oldindan mustahkamlab qo'yilgan shaxsga berilishi kerak bo'lgan ish uchun muhim ahamiyatga molik yangi savollar tug'ilganda;

3) so'roq qilingan shaxs ilgari bergan ko'rsatmalarini rad etsa va yangitdan ko'rsatuv berish istagini bildirsa;

4) guvoh yoki jabrlanuvchining ilgari bergan ko'rsatmasidagi ma'lumotlarning qisman yoki butunlay yolg'on ekanligiga asosli shubha tug'ilgan bo'lsa".

Uchinchidan, barchamizga ma'lumki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi JPKning 329 - moddasi ikkinchi qismida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkinligi, tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinishi ko'rsatib o'tilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tergovga qadar tekshiruv vaqtida so'roq qilish tergov harakatini o'tkazib bo'lmaydi. Faqat qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish mumkin. So'roq qilish jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin surishtiruvchi va tergovchi tomonidan o'tkaziladi. So'roq qilishda so'roq qiluvchidan ko'rsatma olinadi. Biroq, 39²-moddaning 6-qismida gumon qiluvchidan, ayblanuvchidan yoki sudlanuvchidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari arizalar va tushuntirishlar bilan bir qatorda ko'rsatmalar olishi mumkinligi qayd etilgan. Bu ikki normaning bir-biriga zid kelishiga sabab bo'lmoqda. Huquqni qo'llash amaliyotida esa tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan ushbu normaga asoslanib so'roq qilish holatlari uchramoqda.

Yuqorida muhokama qilingan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarni taklif qilamiz:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 39²-moddasi oltinchi qismidagi "yoki ko'rsatuvlar" so'zlarini chiqarib tashlash.

To'rtinchidan, bugungi kunda tergov amaliyotida 95 foiz holatda so'roq qilish tergov harakatlari bevosita tergovchining xizmat xonasida o'tkazilmoqda, biroq ko'plab tergovchilar alohida xizmat xonasi bilan ta'minlanmagan. Ayrim joylarda, ayniqsa, Toshkent shahri tumanlarida bitta xizmat xonasida uchtagacha tergovchi xizmat faoliyatini olib bormoqda [5]. Bu esa tergov harakatlarini, ayniqsa, so'roq qilishni samarali tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Tergov amaliyotida bir xonada o'tirgan tergovchilar protsess ishtirokchilarini bir vaqtda chaqirib qo'yishlari yoki ko'p epizodli jinoyat ishlari doirasida so'roq qilish uchun bir necha guvoh va jabrlanuvchilarning aynan bir

vaqtda chaqirilayotganligi ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalaqit beradi. Sababi, tergovchining birgina mazkur taktik xatosi so'roq qilingan guvohlar bilan so'roq qilinmagan guvohlarni tergovchining savollari va ular bo'yicha berilgan javoblarning mazmuni yuzasidan o'zaro fikr almashishiga, ularning real voqelik bo'yicha beradigan ko'rsatmalarini o'zgartirish ehtimoli oshishiga, so'roq tergov harakatining samaradorligi keskin pasayishiga va eng achinarlisi, ayrim holatlarda guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan yolg'on ko'rsatmalar berilishiga sabab bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, huquqni qo'llash amaliyotida bunday amaliyotga zudlik bilan chek qo'yish lozim. Joylarda tergovchilarning jinoyatlarni to'liq, har tomonlama va sifatli tergov qilishini samarali tashkil etishlari uchun qulay sharoit va muhitga ega bo'lgan xizmat xonalari bilan ta'minlash zarur.

Beshinchidan, tadqiqotimiz davomida olib borgan kuzatishlarimiz natijasida ko'p epizodli jinoyat ishlari doirasida o'nlab, ayrim holatlarda esa yuzlab guvoh va jabrlanuvchilar alohida Telegram guruhlarida birlashib, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yuzasidan doimiy ravishda fikr almashib borishayotganligi oydinlashdi. Bu esa, o'z navbatida, so'roq qilingan guvoh (jabrlanuvchi)lar tomonidan so'roq qilinmagan guvoh (jabrlanuvchi)larga tergovchi tomonidan beriladigan savollarga qanday mazmunda javob berilishi o'rgatilib, tergovning xolisona va to'liq o'tkazilmasligiga hamda tergov siri fosh bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Qolaversa, bunday holatlar g'arazli maqsadni ko'zlagan guvoh yoki jabrlanuvchi uchun ushbu ma'lumotlardan foydalanib tergov organiga ish uchun ahamiyatli holatlar bo'yicha qasddan yolg'on ko'rsatma berishga imkoniyat beradi. Eng yomoni, bunday holatlarda ularning bila turib yolg'on ko'rsatma berganligini isbotlab bo'lmaydi. Chunki ular muhokama jaryonida barcha holatlarni inobatga olishadi.

Bizningcha, bugungi kunda juda ko'plab uchrayotgan bunday salbiy holatlarning oldini olish, tergov sirini saqlash uchun tergovchi har bir guvoh va jabrlanuvchini JPKning 353-moddasida belgilangan tartibda JKning 239-moddasi bilan jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirib borish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur.

Oltinchidan, barchamizga ma'lumki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi JPKda tergovchiga nafaqat jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, balki jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda fuqaro yuksak onglilik, jasorat ko'rsatgani, ijtimoiy burchini namunali bajarganligi yuzasidan rag'batlantirish majburiyati ham yuklatilgan. Darhaqiqat, jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlashda nafaqat imperativ xususiyatli, balki rag'batlantirish usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi [16].

Bilamizki, bugungi kunda fuqarolarimiz ko'z o'nglarida eng jirkanch jinoyat sodir etilgan bo'lsa ham tergov-sud organlariga borish-kelishga ketadigan vaqtlarini o'ylab tergov organlariga ko'rsatma berishdan bosh tortishmoqda yoki "ko'rmaganman", "bilmayman" qabilida ish tutishmoqda. Fuqarolik burchlarini unutishmoqda.

Nazarimizda, tergovchi ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar yuzasidan to'g'ri ko'rsatma berishi natijasida aybdor shaxsni fosh etilishiga sabab bo'lgan guvohning ish, o'qish yoki yashash joyiga ijtimoiy burchini namunali bajarganligi yuzasidan taqdimnoma yuborish yo'li bilan rag'batlantirishi, uning o'sha joydagi hamkasblari, kursdoshlari yoki oila a'zolari orqali boshqa fuqarolarning "guvoh" haqidagi salbiy o'y-fikrlarini o'zgartirishga, tergov organida faqat haqiqatni aytish fuqaroning ma'naviy burchi ekanligini anglab yetishlariga turtki bo'ladi.

O'ylaymizki, mazkur taklif va tavsiyalarimiz amaldagi O'zbekiston Respublikasi JPKning normalari yanada takomillashtirilishiga, sud-tergov organlari amaliyotida guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatma berishlarining oldini olishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan manbalar

1. <https://www.researchgate.net/>(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 01.03.2026-y)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan "Yurtning kuchi birlikda, qadri esa tinchlikdadir" deb nomlangan nutqidan // URL: <https://president.uz/uz/>(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 01.03.2026-y)
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T., 2018. – 213 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://xs.uz/uzkr/post/>(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.03.2026-y)
5. Mehmonov A.Ya. So'roq qilish tergov harakatini o'tkazishni takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri ... dis. – T., 2024. – B.143,161..
6. <https://fra.europa.eu> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 08.04.2026)
7. Jacquotline Hodgson.The Detention and Interrogation of Suspects in Police Custody in France A Comparative Account. <https://www.researchgate.net/publication/258136772> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 08.04.2026)
8. Тинякова Е.А. —Чем может быть полезен опыт американской следственной практики для российской уголовной реальности (по страницам курса он-лайн «Доказан невиновным? Социальная наука об ошибочных обвинениях», Пенсильванский университет, США) // Полицейская и следственная деятельность. – 2016. – № 4. – С. 63
9. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575852#pos=3;-137 / (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 08.04.2026-y)
10. Уголовно-процессуальный кодекс Туркменистана. <http://base.spininform.ru.>(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 08.04.2026-y).
11. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики. <https://online.zakon.kz/>.(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 10.04.2026-y).
12. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан. <http://base.spininform.ru.> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 10.04.2026-y).
13. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации. <http://www.consultant.ru/document/cons> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 11.04.2026-y).
14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi// <https://lex.uz/docs/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 17.04.2026-y)
15. Белкин Р.С. Криминалистика: Учебник.–2001. <https://be5.biz/pravo/k023/35.html> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 18.04.2026 й)
16. Xushvaktova N.A. Ishni sudga qadar yuritishda jamoatchilik ishtirokini takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-i ... dis. – T., 2023. – B.99.

